

**KALTAMINOR MADANIYATINING XO'JALIK
SOHALARIGA OID ILMIY QARASHLAR TAHLILI**
Matyakubov Xamdam Xamidjanovich, Urganch davlat universiteti
"Tarix" kafedrasi dotsenti, (PhD)

**ANALYSIS OF SCIENTIFIC VIEWS ON THE
ECONOMIC ASPECTS OF THE KALTAMINOR
CULTURE**

**Matyakubov Khamdam Khamidjanovich, Associate Professor of the
"History" Department of Urganch State University, (PhD)**

**АНАЛИЗ НАУЧНЫХ ВЗГЛЯДОВ НА
ЭКОНОМИЧЕСКИЕ СЕКТОРЫ КУЛЬТУРЫ
КАЛТАМИНОР**

**Матъяқубов Хамдам Хамиджанович, доцент кафедры
"История" Ургенчского государственного университета,
(PhD)**



[https://orcid.org/0000-0001-
5440-0112](https://orcid.org/0000-0001-5440-0112)
e-mail:
hamdamtarix@gmail.com

Annotatsiya: Urug'chilik jamoalarining rivojlanishida, moddiy ishlab chiqarish inson hayoti va faoliyatida hal qiluvchi asos bo'lib, bunda tabiatda tayyor oziq-ovqat mahsulotlarini yig'ib olish va ularga ishlov berish katta ahamiyat kasb etganligi ma'lum. Mezolit davri oxirlari va neolit davri boshlariga kelib, ana shu jarayondagi tabiiy oziqni qo'lg'a kiritish usullarida tub o'zgarishlar yuz berdi. Maqolada Kaltaminor madaniyatining xo'jalik sohalariga oid ilmiy qarashlar tahlili amalga oshiriladi.

Kalit so'zlar: mezolit, neolit, toshga ishlov berish, xo'jalik sohalar, tabiiy-geografik sharoit, paleoekologik holat, turar joylar.

Abstract: It is known that in the development of tribal communities, the decisive basis of human life and activity was material production, and the collection and processing of finished food products in nature played a large role. By the end of the Mesolithic and the beginning of the Neolithic, fundamental changes occurred in the methods of obtaining natural food in this process. The article analyzes scientific views on the economic spheres of the Kaltaminor culture.

Key words: Mesolithic, Neolithic, stone processing, economic sectors, natural and geographical conditions, paleoecological situation, settlements.

Аннотация: Известно, что в развитии родоплеменных сообществ решающую основу жизни и деятельности человека составляло материальное производство, а сбор и переработка готовых продуктов питания в природе играли большую роль. К концу мезолита и началу неолита произошли принципиальные изменения в способах получения естественной пищи в этом процессе. В статье анализируются научные взгляды на хозяйствственные сферы культуры Калтаминор.

Ключевые слова: мезолит, неолит, обработка камня, отрасли хозяйства, природно-географические условия, палеоэкологическая обстановка, поселения.

KIRISH. Urug'chilik tuzumi tarixini qayta tiklashda arxeologik va etnografik materiallar katta ahamiyat kasb etib, ayniqsa, arxeologik tadqiqotlar yordamida qo'lg'a kiritilgan manbalar, bevosita uzoq o'tmish bilan bog'langan va undan turlichay axborotni saqlab kelgan. Ulardan, birinchi navbatda, tosh davri

madaniyati va ijtimoiy-iqtisodiy tizimini o'rganishda foydalaniladi [8, c. 5-13].

Shu bilan birga, tabiiy-geografik sharoit, paleoekologik holat, qadimiy makonlardan topilgan paleofauna va flora qoldiqlarini tadqiq etish, inson va atrof-muhitning o'zaro munosabatlari rekonstruksiyasiga xizmat qiladi [13, c. 136-137].

NATIJALAR VA TAHLILLAR. So'nggi paleolit va mezolit davrida Xorazm vohasiga (Sulton Uvays tog'i yonbag'irlarida), Ichki Qizilqum va Ustyurt hududlaridan ovchilar jamoalarining kirib kelishi va vohada shu davrlarga oid uzoq vaqt davomida inson yashagan makonlar aniqlanmaganligi qayd etilgan. Shu qatorda, Ustyurt palatasida aniqlangan ko'p sonli arxeologik yodgorliklar orasida, doimiy ravishda yashash uchun moslangan tosh davriga mansub makonlar topilmagan. Ular mavsumiy xususiyatga ega bo'lib, ov o'ljasini bo'lish joylari va qisqa vaqt mobaynida foydalanilgan makonlarga ajratilgan.

Bu makon-joylardan topilgan tosh qurollarining ko'pchilik qismi ov faoliyatiga mo'ljallanib, ularni chaqmoqtoshdan ishlangan nayza va o'q uchlari bilan birga, yovvoyi hayvonlar go'shtini kesish va bo'laklarga ajratish uchun ishlatilgan tosh pichoq qadamalari va kesgichlar, hayvonlar terisi, suyaklari va shohlariga ishlov bergen qirg'ichlar kabi qurollar tashkil etadi [4,c.17-20].

Amudaryoning qadimiy o'zani Oqchadaryo havzasidan Quyi Zarafshon vohasiga qadar cho'zilgan dasht sarhadlarida neolit davri jamoalari, tomi hamda yon tomonlari qamish bilan berkitilgan va yog'och ustunlarga tayanib turgan sinchli kulbalarda yashab boshlagan. Kaltaminor madaniyatiga oid 7 ta shunday turar joylarning qoldiqlari topilgan. Ular ichida Jonbos 4, Qavat, "Tolstov makoni", Lavlakon, Uchashi, Darvozaqir 1 va 2 kabi makonlar o'rganilgan [13, c. 136-137].

Urug'chilik jamoalarining rivojlanishida, moddiy ishlab chiqarish inson hayoti va faoliyatida hal qiluvchi asos bo'lib, bunda tabiatda tayyor oziq-ovqat mahsulotlarini yig'ib olish va ularga ishlov berish katta ahamiyat kasb etganligi ma'lum. Mezolit davri oxirlari va neolit davri boshlariga kelib, ana shu jarayondagi tabiiy oziqni qo'lga kiritish usullarida tub o'zgarishlar yuz berdi.

Ilmiy adabiyotlarda neolit (yangi tosh davri) "neolit inqilobi" davri deb ataladi. Bu davrda, Markaziy Osiyorning janubidagi Kopetdog' shimoliy yon bag'irlarida urug'dosh jamoalari, uzoq

davrlar davomida tabiatda mavjud bo'lgan mahsulotni o'zlashtirishdan, xo'jalikning ishlab chiqaruvchi shakliga o'tib, dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullana boshlashgan (Joytun madaniyati). Shu tufayli, mintaqa miqyosida turli tabiiy-geografik sharoitda yashagan qabilalarning ijtimoiy-iqtisodiy hayotida va moddiy madaniyatida notejis rivojlanish vujudga kelgan.

Mil.avv. VI-V ming yilliklarda Kaltaminor madaniyati doirasidagi Amudaryoning Uzboy o'zani qirg'oqlari, Ustyurt, Orolbo'y, Ichki Qizilqum, Quyi Zarafshon vohasida xo'jalikning an'anaviy ibtidoi sohalari-ovchilik, baliqchilik va termachilik rivojlanganligi tadqiqotchilar tomonidan tan olinadi. C.P.Tolstov mil.avv. III ming yillikda, dashtlardi neolit davrining so'nggi bosqichlarida, kaltaminorliklar chorvachilik bilan mashg'ul bo'lganligini qayd etgan [12,c.77]. G.F.Korobkova Quyi Zarafshon vohasida Darbozaqir makonlaridan tosh yorg'uchoqlar va o'roq qadamalarining topilishiga o'z diqqatini jalb etib, bu yerdagi Kaltaminor madaniyati jamoalari nafaqat chorvachilik, balki sodda dehqonchilik shakllarini ham bilishgan deb yozgan [7,c.178-179].

A.V.Vinogradov Kaltaminor madaniyatining xo'jalik sohalariga oid ilmiy qarashlarni tahlil qilib, "iste'molga yaroqli o'simliklarni yig'ib olish va ularga ishlov berish bilan bog'langan tosh pichoqlar (o'roqlar) qadamalari va yorg'uchoqlar o'z-o'zidan dehqonchilikning mavjudligini isbotlab berishga xizmat qila olmaydi, shu boisdan kaltaminorliklarning yorg'uchoqlari va boshqolar o'rim-yig'imiga mo'ljallangan qurollari, tosh pichoqlar qadamalari termachilik sohasida ishlatilganligi ko'proq haqiqatga to'g'ri keladi", kabi xulosaga kelgan [13,c.139].

A.V.Vinogradovdan ancha ilgari Y.G'uromov hammulliflikda yozilgan monografiyada xuddi shunday fikrni bildirgan. Olimning aytishicha, neolit davri makonlaridan yanchish va maydalash vazifalariga oid tosh qurollarning neolit davri makonlaridan topilishi dehqonchilikdan guvohlik bermaydi, bunday qurollar yovvoyi arpa, bug'doy boshqolari, iste'molga yaroqli ildizlar, quruq mevalar va boshqalarni maydalash maqsadida ishlatilganligi ehtimoldan xoli emas. Bu xulosa Zarafshon daryosining quyi qismida, Tuzkon ko'llari bo'ylarida tekshirilgan neolit davri Darbozaqir makonlarining arxeologik materiallariga asoslangan [6,c.90].

V.M.Massonning yozishicha, Qadimgi Sharqda tosh pichoq va o'roq qadamalari, yorg'uchqolar va hovonchalardan mezolit davrida yovvoyi o'simlik mahsulotlariga ishlov berishda va ovqat tayyorlashda keng foydalanilgan, "neolit inqilobi" davrida mazkur tosh qurollar bevosita dehqonchilik bilan bog'liq holda ishlatilgan [10,c.134]. Bizningcha, shu qatorda pichoq qadamalari va boshqa kesgich tosh qurollardan, neolit davri jamoalarining kulbasimon turarjoylari qurilishida ishlatilgan daraxtlar va ularning butoqlarini hamda, qamishni kesishda, shuningdek, bo'yra to'qish uchun qamishni g'amlab qo'yish jarayonida keng foydalanilgan.

Ustyurt va Xorazm vohasida o'rganilgan neolit davri makonlaridan xonakilashtirilgan hayvon suyaklari topilgan. Dasht sarhadlarida joylashgan makonlar orasida, Sharqiy Kaspiybo'yidagi Damdamchashma g'or-makonida mil.avv. VII ming yillikka oid, xonaki echki suyaklarining aniqlanganligi, ko'p yillar mobaynida Markaziy Osiyoda ishlab chiqarish xo'jalik sohasi – ilk chorvachilikning paydo bo'lishiga tegishli yagona ma'lumot bo'lib kelgan edi [9,c.13].

XX asr boshlarida Quyi Zarafshon vohasidagi Oyoqogitma neolit davri makonida F.Brunet va M.Xo'janazarovlar xonaki mayda shoxli hayvon suyaklarini topib, Kaltaminor madaniyati boshlang'ich sanasini mil.avv. VII ming yillik bilan belgilashni taklif etishdi[5].

O'rta Zarafshon vohasi Qoratepa tog' tizmasi shimoliy yon bag'irlarida joylashgan Sozog'on, Ochilg'or, Qoraqamar neolit davri makonlarining o'rganilishi natijasida O'.N.Xolmatov, Sazag'on madaniyati jamoalari turmushida o'zlashtirish xo'jalik sohasi ustuvor bo'lganligini uqtirib, shu bilan birga neolit davri madaniyati taraqqiyotining so'nggi bosqichlarida ishlab chiqarish xo'jaligining dastlabki ko'rinishlari namoyon bo'la boshlaganligi to'g'risida masalani ilgari surdi [14,b.33]. Tadqiqotching fikriga ko'ra, Sazag'on madaniyati makonlari, Uchtut chaqmoqtosh ustaxonasi va Oyoqogitma makoni ma'lumotlari, Zarafshon havzasi Markaziy Osiyoning janubi-g'arbiy hududlari Joytun madaniyati singari neolit davrida eng qadimgi ishlab chiqarish xo'jaligi bo'lgan markazlardan biri ekanligidan guvohlik beradi [11,b.68].

O'.N.Xolmatovning ta'kidlashicha, O'rta Zarafshon vohasi neolit davri makonlarida qo'lga

kiritilgan hayvon suyaklari qoldiqlarining tahlili ular 20 turdan kam bo'lмаган yovvoyi hayvonlarga va 6 turga oid xonaki hayvonlarga mansubligini ko'rsatadi, ya'ni urug'chilik jamoalarini hayotida ovchilik, shu jumladan ibtidoi buqa (tur) ovi katta ahamiyat kasb etgan [14,b.28].

Qoratog'ning janubiy yonbag'rida joylashgan Sarmishsoy darasi (Navoiy viloyati) qoyatosh rasmlarini keng o'rgangan M.Xo'janazarovning yozishicha, neolit davridan Sarmishsoy atroflari kengroq o'zlashtirilib, bu yerda Kaltaminor madaniyatiga mansub ovchilik, baliqchilik va chorvachilikka asoslangan qabilalar yashay boshlagan [15,b.38].

Bizning fikrimizcha, umuman olganda, Kaltaminor madaniyati makonlari yoyilgan O'zbekistonning dasht hududlarida chorvachilikning rivojlanganligi, ehtimoldan xoli emas. Ammo, shu makonlarda turarjoylar aniqlangan bo'lsa-da, lekin xonaki sovliq qo'ylar, echkilarni boqish uchun mo'ljallangan og'il yoki o'rav olingan molqo'ralarning izlari aniqlanmagan. Neolit davri dashtlarda dehqonchilikning dastlabki ko'rinishlari namoyon bo'la boshlaganligi to'g'risida masalaga kelsak, kaltaminorliklarning makonlarida g'alla saqlash uchun foydalanilgan katta o'ralar va maxsus idishlar haqida madaniylashtirilgan arpa yoki bug'doyning don qoldiqlari topilmagan. Aksincha, qo'lga kiritilgan arxeologik materiallar – tosh qurollar, hayvonlar, parranda va baliqlar suyaklari, Xorazm vohasi va qo'shni hududlarda yashagan neolit davri jamoalarini o'zlashtiruvchi xo'jaliklar – baliqchilik va termachilik bilan mashg'ul bo'lganlaridan guvohlik beradi [17,b.28].

Xorazm vohasida va Qizilqumdag'i neolit davri yodgorliklarida yovvoyi hayvonlarning suyaklari talaygina miqdorda aniqlangan. Ularning orasida ibtidoi ho'kiz-tur, ohu, qulon, jayron, to'ng'iz, quyon va boshqa yovvoyi hayvonlarning suyaklari mavjud. Ular daryo deltalari – to'qayzorlarda yashovchi bug'u va to'ng'izlar hamda dasht sarhadlarida keng yoyilgan jayron, qulon va sayg'oqlar ming yillar mobaynida ov obyekti bo'lgan.

Shuningdek, xonakilashtirilgan itning suyaklari topilgan. Sarmishsoy qoyatosh rasmlarida buqa-turlar va tog' echkilarni odamning o'q va yoy yordamida hamda itlar ishtirokida ov qilish manzaralari mavjud. Shu qatorda hayvonlarning yirtqichlar – arslon va gepardlar tomonidan ta'qib

etilishi suratlari e'tiborga molik [15,b.37-38]. Ushbu yirtqichlar allaqachon uzoq o'tmishda yo'q bo'lib ketgan.

Janubiy Orolbo'y Amudaryoning Oqchadaryo deltasi yerlarida kun kechirgan urug'dosh jamoalari, daryo o'zanidan biroz uzoqlashgan qumtepaliklarida o'z turar joylarini bunyod etishgan. Chunki daryo bo'yida yashash hayot uchun xavfli bo'lgan. Daryo toshqin suvlari kulbalarni yuvib ketish xavfi yuqori edi.

Qiyoslash uchun, Quyi Zarafshon vohasida Katta Tuzkon ko'li qirg'og'ida asos solingan Darbozaqir 1 makonining kulbasi to'rt marta suv toshqini tufayli neolit davrida odamlar tomonidan tashlab ketilgan. Tadqiqotchilarining yozishicha, toshqin pasaygach, makon egalari yana o'z o'rniga qaytishgan, negaki, to'qayzorlar va qamishzorga aylanib ketgan ko'l qirg'oqlari ovchilar uchun hayot manbayi bo'lgan [3,b.12-14].

Shu sababli, bunday tabiiy-geografik sharoit, Oqchadaryo deltasi va Zarafshonning quyi oqimi hududlarida ko'proq ovchilikka xizmat qilib, chorvachilikni rivojlantirishga yaroqsiz edi. Dasht yaylovlarida, turarjoylaridan uzoqlashgan holda chorvani boqish usulini kaltaminorliklar bilishmagan.

O'sha zamonlarda yovvoyi fauna juda boy, xilma-xil bo'lib, minglab mayda va yirik shoxli yovvoyi hayvonlar hamda qulon va to'ng'izlar bepoyon dashtlarda, daryo irmoqlari va ko'llar bo'ylarida yashagan. Ularni ovlash tufayli, urug' jamoalari yuqori kaloriyalı go'sht mahsulotlari bilan ta'minlangan.

Neolit davrida o'q va yoy bilan ov qilish keng tarqalib, uning usullari takomillashib borgan. Ovchilik sohasida nafaqat o'q-yoydan foydalanish, balki uchlari o'tkir tosh va suyakdan yasalgan nayzalarni ishga solish, hayvonlarning ko'chib yurish va tabiiy suvloq yo'llarida chuqur o'ralar kovlash va ular to'dalarini baqiriq, shovqin bilan qo'rqtib, jar yoqasiga haydash, an'anaviy ov usullari bo'lgan.

Kaltaminorliklarning xo'jaligida baliq ovi katta o'rin egallagan. Jonbos 4 va "Tolstov makoni"da qo'lga kiritilgan ashyoviy manbalarga ko'ra, sanchqi (garpun), changak, suyakdan ishlangan qarmoqlar baliq ovi qurollari vazifalarini bajargan. Changak va garpunlar suv ustida suzib yuruvchi parrandalarni (o'rdak, churrik, baqlan kabi suvda suzadigan qushlarni) ovlash uchun qo'llanilganligi taxmin qilinadi [13,c.144-145].

Bizningcha garpunlar baliq ovi quroli sifatida bugunga qadar o'z ahamiyatini saqlab kelganligini hisobga olib, parrandalarga nisbatan ular yordamida Oqchadaryo havzasida serob bo'lgan cho'rtan va laqqabaliq, sazan, olabug'a va boshqa baliqlarni ovlash qulayroq edi. Shuningdek, garpunlarni ishlatib, qamishdan yasalgan mash'alalar yog'dusi yordamida, sayoz daryo irmoqlarida neolit davri ovchilari kechasi baliq tutishganlari ehtimoldan xoli emas. Shu bilan birga, hozirda jahonning turli mintaqalarida qadimdan xo'jalik an'analarini saqlab qolgan qabilalar orasida, uncha katta va chuqur bo'lmagan suv havzalarida shovqin va tayoqlar bilan suv yuzasiga urib, baliqni to'qilgan savat va to'r hamda qo'l yordamida ovlash tarqalgan. Shunday baliqchilikka oid usulni kaltaminorliklar ham aftidan bilishgan.

XULOSA. Ovchilik va baliqchilik bilan birga, Xorazm vohasidagi neolit davri qabilalarining xo'jalik hayotida tabiatda tayyor oziq-ovqat mahsulotlaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etib, iste'molga yaroqli o'simliklarning ildizlari, yovvoyi mevalar va g'alla boshoqlari, qushlar va dasht toshbaqalarining tuxumlari terib olingan. Termachilik mashg'ulotining yana bir amaliy foydasi shundaki, shu soha orqali inson turli o'simliklarning tabiatda o'sish va hosil qilishning jihatlari, ularning foydali va zararli tomonlari, hamda, umuman, don va urug'lar, ildizlar va mevalar to'g'risida amaliy ma'lumotlarga ega bo'lgan [16,b.51]. Biroq, termachilik sohasi yil mavsumlari bilan bog'liq bo'lib, o'simlik mahsulotlarni g'amlab qo'yishga to'g'ri kelgan.

Neolit davrida Kaltaminor madaniyati doirasidagi dasht sarhadlarida ovchilar, baliqchilar va termachilarining turmush tarziga xos "xo'jalik-madaniy tip" shakllangan. Xo'jalik madaniy tiplarning umumiyligi ko'p jihatdan tabiiy muhit va geografik sharoit bilan belgilangan [2,c.3-25]. Shu tariqa, dashtlarga mansub tabiat xususiyatlari, geografik sharoit, hayvonot va o'simliklar olami, kaltaminorliklarning yetakchi xo'jalik sohalarining rivojlanishiga ta'sir qilgan. Odatda, ibridoiy jamiyat tarixida, atrof-muhit ishlab chiqarishning tabiiy-geografik poydevori bo'lib, turlicha tabiiy sharoitda moddiy ishlab chiqarishning xilma-xillagini belgilab bergen. Bu o'z navbatida turli xo'jalik-madaniy tiplarning shakllanishi, taraqqiyoti va almashtirilishiga kor qilgan [1,c.12-13].

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Андрианов Б.В., Брук С.И., Козлов В.И. Этническая география и её место в системе этнографической и географических наук // Проблемы этнической географии и картографии. – М.: Наука, 1978. – С.12-13.
2. Андрианов Б.В., Чебоксаров Н.Н. Хозяйственно-культурные типы и проблемы их картографии // СЭ. – М., 1972. № 2. – С. 3-25.
3. Аскarov А. Бухоронинг ибтидоий давр тарихидан лавҳалар. – Тошкент: Фан, 1973. – Б. 12-14.
4. Авизова А.К. Трасологический анализ орудий труда. С.17-20.
5. Brunet F. Pour une nouvelle e'tude de la culture neolithique de Kel'teminar Uzbekistan // Paleorient. 2005. Vol. 37. – Рр. 87-106.; Брунет Ф., Хужаназаров М., Хошимов Х. Новые данные к хронологии Кельтеминарской культуры в Узбекистане (VII-IV тыс. лет. до н.э.) // ИМКУ. – Самарканд, 2012. Вып.38. – С.118-125.
6. Гулямов Я. Г., Исломов.У, Аскarov А. Первобытная культура и возникновение орошающего земледелия в низовьях Зарафшана. – Тошкент: Фан,1966. – С. 90.
7. Коробкова Г.Ф. Орудия труда и хозяйства неолитических племён Средней Азии // МИА. 1981. № 158. – С. 178-179.
8. Массон В.М. Экономика и социальный строй древних обществ. – Л.: “Наука”, 1976. – С. 5-13.
9. Массон В.М. Неолитические охотники и собиратели // Средняя Азия в эпоху камня и бронзы. – М. – Л.: Наука, 1966. – С. 13.
10. Массон В. М. Поселение Джейтун // МИА.1971. № 180. – С. 134.
11. Сагдуллаев А.С., Холматов. Н.Ў., Абдуллаев. Ў.И. ва бошқ. Марказий Осиёда тарихий-маданий вилоятларнинг шаклланиши ва этник географияси муаммолари. – Тошкент: Университет 2020. –Б.68
12. Толстов.С.П. По следам древнехорезмийской цивилизации. – М. – Л.: АН СССР, 1948. – С.77.
13. Виноградов А.В. Древние охотники и рыболовы...С.136-137.
14. Холматов Н.Ў. Сазағон маданияти ва унинг Ўзбекистон неолит даврида..... Б. 33.
15. Хужаназаров М. Сармишсой (қоятош расмлари, илмий тадқиқотлар). – Тошкент: Нурфайз нашриёти, 2018. – Б. 38.
16. O‘zbekiston tarixi I-китоб. – Тошкент: Фан, 2018. – Б. 51.
17. Ўзбекистон тарихи (Хоразм тарихи). XI жилд // Масъул мухаррир: А.С.Сагдуллаев. – Тошкент: O‘zbekiston, 2023. – Б. 28

